



FARG‘ONA VILOYATI QO‘SHTEPA TUMAN HOKIMINING F A R M O Y I S H I

2022 - yil 16 - may

89-11-157-F/22

Qo‘shtepa tuman hokimligi

Mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28, 126-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvar kungi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda Qo‘shtepa tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 16 maydagi 130-sonli xatini inobatga olib,

1. Qo‘shtepa tumani Shaxartepa mahalla fuqarolar yig‘inidagi Vodiy ko‘chasini asfaltlashtirish ishlarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarga tuman mahalliy byudjetining 2022 yil uchun tasdiqlangan zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 65,0 (oltmish besh) million so‘m mablag‘ belgilangan tartibda tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilsin.

2. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (M.Ro‘ziboev)ga:

ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni moliya va g‘aznachilik bo‘limlariga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligining moliya bo‘limi (I.Akbarov)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish va byudjet

xarajatlari rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish, tuman g'aznachilik bo'linmasi (G'.Raximov)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari A.Yunusov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



I.V.Novikov